

O'QUVCHI YOSHLARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA ULARGA KERAKLI TAVSIYALAR BERISH, QIZIQISH VA QOBILIYATLARIGA QARAB KASBGA YO'NALTIRISH

Shodatova Munira Umurovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 34-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarimizning kasb tanlashlarida ustunlik qiladigan omillarni tavsifi va ulardagi iqtidor va layoqatlarini ertaroq aniqlashning psixologik usullari va kasb tanlashda oiladagi ota-onaning o'rni va ahamiyati, to'g'ri kasb tanlash muvaffaqiyat garovi ekanligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: motivatsiya, iqtidor, o'z-o'zini rivojlantirish, motiv, malaka, shaxsiy qaror, kasbiy ta'lim, ehtiyojlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar, ilmiy tadqiqotlar.

KIRISH

Yoshlarning zamonaviy kasblardan birini tanlashi murakkab, ko'p omilli va ko'p qirrali jarayondir. Ko'pgina fanlar bu jarayonning turli jihatlarini bilan shug'ullanadi.

So'nggi yillardagi ko'plab ilmiy tadqiqotlar, ilmiy maqola va kitoblar yoshlarning kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, mehnat hayotining boshlanishi, hayot yo'llari masalalariga bag'ishlangan. Bolalik nihoyasiga yetmoqda va hayotning bu buyuk bosqichi, tugashi, shaxsning shakllanishiga olib keladi. Shaxsning yaxlit o'ziga xosligi, dunyoga ishonchi, mustaqilligi, tashabbuskorligi va malakasi jamiyat o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifani - o'z taqdirini o'zi belgilash, hayot yo'lini tanlashni hal qilish imkonini beradi.

O'smirlik davridagi zamonaviy kasblardan birini tanlash nafaqat yoshning shaxsiy qarori ekanligi balki shu bilan birga jamiyat va davlat uchun uning ijtimoiy samaradorligi uchun kata ahamiyat kasb etishini unutmaslik kerak. U hali

kelajakdagi hayotining barcha jabhalarini to'liq amalga oshirishga tayyor emas va kattalar, ayniqsa ota-onalar va maktabdagi o'qituvchi va psixologlarning yordamiga muhtoj. Yoshlar ongida kasbiy o'zini o'zi belgilashga tayyorlik yo'q. Bunda o'qituvchilar va tengdoshlarning ta'siri o'ziga xos xususiyatga ega. Zamonaviy kasblar dunyosi, zamonaviy faoliyat turlarining tabiati va xususiyatlari to'g'risida xabardor qiladi. O'smirning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlar va qobiliyatlari imkoniyati kabi tushunchalarni bilishini yetarli darajada adekvat deb hisoblash mumkin. Salomatlik holati, ushbu omillar tufayli kasb tanlashda mumkin bo'lgan cheklovlar, va turli tortishuvlar yuzaga chiqishi mumkin. Shu sababli, ota-onalar ishtirok etadigan professional maslahat eng samarali usul hisoblanadi.

O'quvchilarga kasb tanlashda yordam berish, ota-onalar u bilan nafaqat ma'lum kasblarning afzalliklari va kamchiliklarini, shuningdek, ushbu kasblar bo'yicha ta'lim olish imkoniyatlarini muhokama qiladilar. Shu bilan birga, ota-onalar muqarrar ravishda psixologga aylanadilar, chunki o'rta maktab o'quvchisining ehtiyojlarini, motivlarini, qobiliyatlarini ochib berish, ular o'rtasidagi munosabatlarni baholash kerak.

O'quvchilarning kasb tanlashga qiziqish va motivlari asosan, o'rta yoshdan boshlanadi, shunga ko'ra, o'qituvchilar jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab o'quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o'zini-o'zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turadi. Bundan tashqari, psixologlar o'quvchilarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga qiziqish darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu haqida o'quvchilarning sinf raxbari va ota-onalarini xabardor qilib borishlari zarur. O'quvchilarning zamonaviy kasblardan birini tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo'lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko'p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat'iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin.

Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, maktab o'quvchilari kasb tanlash borasidagi o'z qarorlarini, ko'pincha, har tomonlama izohlab bera olmaydilar, biroq ularning ko'pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni yosh bosqichlarida o'quvchilarda quyidagi mazmunga ega bo'ladi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad - ularni mehnat, kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borish va kasb faoliyatiga qiziqishni shakllantirishdan iborat. Shunday qilib, o'rganishlar natijasida o'quvchilarning kasb tanlashida zamonaviy kasblarning mazmun mohiyati anglashda, ota-onalarning kasb tanlashga ta'siri juda katta ekanligini ko'rsatdi. Masalan, sub'ektlarning yarmidan ko'pi kasb tanlashda tashqi motivlarga yo'naltirilgan. Ko'pincha kasb yaqin atrof-muhit ta'siri ostida tanlanlanadi. Psixodiagnostika shuni ko'rsatdiki, yuqori sinf o'quvchilari "o'qituvchi" va "shifokor" kabi kasblarni afzal ko'radilar, lekin kasblarning mohiyati va talablari har doim ham o'quvchilarga ma'lum emas. Bundan tashqari, ko'proq e'tibor, yuqori mas'uliyat va ijodkorlikni talab qiladigan kasblar ko'pchilik sub'ektlarning temperamentiga mos kelmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy kasblarni tanlash - bu shaxsiy rivojlanish, ma'naviy yuksalish, o'z-o'zini qadrlash, mehnat unumdorligi, yuqori sifatli mahsulotlardir. Kasb tanlash - bu shaxs va jamiyat manfaatlarining yaqinlashishi, shaxsiy va umumiy manfaatlarning uyg'un kombinatsiyasi mumkin va zarur bo'lgan nuqtasi hisoblanadi.

Yoshlikda kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirilgan bola kelajakda nafaqat oilasiga balki jamiyat taraqqiyotiga ham sezilarni ijobiy ta'sir ko'rsatadi va albatta jamiyat uchun foydasi tegadigan shaxs bo'lib voyaga yetadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Климов Е. А. Как выбрать профессию — М.: Просвещение, 1990. — 158 с.

2. Кудрявцев Т. В. Психология профессионального обучения и воспитания. — М.: МЭИ, 1987. — 143 с.
3. Ратанова Т. А., Шляхта И. Ф. Психодиагностические методы изучения личности. — М.: Педагогика, 1998. — 267 с.
4. Nabijonova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002. -38 b
5. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. - 97 b